



FROM THE HISTORY OF THE FORMATION OF PRIVATE PRINTING IN TURKESTAN

Akmaljon Abdurasulov

PhD student at Namangan state Pedagogical Institute

e-mail: abdurasulovakmaljon1987@gmail.com

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: “Military People’s Administration Printing House,” Viktor Pastukhov, Esanboy Husaynboyogli, O. Porsev, A. L. Krisner, I. Vayner, Gulomiya.”

Received: 02.12.25

Accepted: 03.12.25

Published: 04.12.25

Abstract: This article attempts to provide a detailed account of the cooperative relations in the emergence, formation, and development of private printing in Turkestan. The research was conducted on the basis of archival documents, periodicals, local and international sources, as well as the analysis of existing literature. The article highlights the stages of the appearance of private printing houses, their organizational and economic mechanisms, and their contribution to the development of national culture.

TURKISTONDA XUSUSIY MATBAACHILIKNING SHAKLLANISHI TARIXIDAN

Akmaljon Abdurasulov

Namangan Davlat pedagogika institutining tayanch doktoranti

e-mail: abdurasulovakmaljon1987@gmail.com

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: “Harbiy halq boshqarmasi bosmaxonasi”, Viktor Pastukhov, Esanboy Husaynboyog'li, O. Porsev, A. L. Krisner, I. Vayner, G'ulomiya.

Annatsiya: Ushbu maqolada Turkistonda shaxsiy matbaachilikning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishida hamkorlik aloqalarini batafsil yoritishga harakat qilindi. Tadqiqot arxiv hujjatlari, davriy nashrlar, mahalliy va xalqaro manbalar hamda mavjud adabiyotlar tahlili asosida olib borildi. Maqolada xususiy matbaalarning paydo bo'lish bosqichlari, ularning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va milliy madaniyat rivojiga qo'shgan hissasi yoritildi.

ИЗ ИСТОРИИ ФОРМИРОВАНИЯ ЧАСТНОГО ТИПОГРАФСКОГО ДЕЛА В ТУРКЕСТАНЕ

Акмалжон Абдурасулов

Докторант базовой докторантуры при

Наманганском государственном педагогическом институте

e-mail: abdurasulovakmaljon1987@gmail.com

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: “Военно-народное управление типография”, Виктор Пастухов, Эсанбой Хусайнбой-оглы, О. Порсев, А. Л. Криснер, И. Вайнер, Гуломия.

Аннотация: В данной статье предпринята попытка подробно осветить сотрудничество и взаимодействие в процессе возникновения, формирования и развития частного типографского дела в Туркестане. Исследование проведено на основе анализа архивных документов, периодических изданий, местных и международных источников, а также существующей литературы. В статье раскрываются этапы появления частных типографий, их организационно-экономические механизмы и вклад в развитие национальной культуры.

Kirish. XIX asrning 60-70-yillarida Rossiya imperiyasi Turkistonni zabt etganidan so'ng, o'lkani o'zining xomashyo bazasiga aylantirish va bu zaminning behisob boyliklarini talon-taroj qilish, mintaqada rus madaniyatini yoyish va Turkiston aholisini ruslashtirish uchun kuchli mafkuraviy tas'ir quroli bo'lgan vaqtli matbuot va matbaaga asos soldi. Maatbachilik Turkistonda Yevropa va Osiyoning boshqa mintaqalariga qaraganda kechroq vujudga kelgan bo'lsada, jadallik bilan rivojlandi. Dastlab rus noshirlari, keyinroq mahalliy ziyolilar tomonidan shaxsiy matbaalar tashkil etildi. Matbaaning paydo bo'lishi Turkiston xalqlari uchun shubhasiz katta madaniy yutuq edi. Rossiya imperiyasi Toshkentda matbaaga asos solgan vaqtdan boshlab Turkistonda matbaachilikning rivojlanishi boshlandi.

Ushbu maqolada Turkistonda xususiy bosmaxonalar tarixi va uni tashkil etishda hamkorlik aloqalari tadqiq qilinadi. Shaxsiy bosmaxonalar albatta daromad topish maqsadida ochilgan. Ayniqsa rus noshirlari Turkistonda daromad olish uchun matbaalarga asos solishadi. Ammo mahalliy ziyolilar uchun daromaddan ham muhim bo'lgan oliy maqsad bor edi. Bu oliy maqsad Turkiston aholisini ma'rifatli qilish edi. Buni amalga oshirishda matbaaning o'rni katta bo'lgan.

Sovet va mustaqillik davridagi ilmiy tadqiqotlarda matbaachilikning vujudga kelishiga doir ko'plab izlanishlar olib borildi, maqola va risolalar yozildi. Matbaachilikning vujudga kelishi va rivojlanishi batafsil tadqiq qilindi. Ammo, matbaachilikning tashkil etilishida hamkorlik aloqalari

haligacha tadqiq qilinmagan mavzu bo'lib, maqolada shaxsiy bosmaxonalarning tashkil etilishidagi hamkorlik aloqalarini batafsil yoritishga harakat qilindi.

Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Ushbu maqola tarix fanida qabul qilingan ilmiylik, tarixiylik, xolislik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik tamoyillari asosida yoritildi. Husayn Shams qalamiga mansub “Matbaachilik tarixi”, T. Ernazarov va A. Akbarovning “История печати Туркестана”s, A. Boboxonovning “O‘zbek matbaasi tarixi asari”, Z. Abdurashidovning “Tarjimon gazetasidagi Turkiston materiallarining izohli bibliografiyasi”, M. P. Avsharovaning “Русский периодическая печат в Туркестане”, Ziyov Saidning “O‘zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar”, Chabrovning “Из истории полиграфии и издательства литературы на местных языках в дореволюционном Туркестане” (1868–1917), “У истоков узбекской полиграфии (хивинская придворная литография 1874–1910 гг.)”, “К изучению среднеазиатского книжного переплета // Народы Азии и Африки” va “Книгопечатание в Средней Азии второй половины XIX века” asarlarida, U. Dolimovning “Is’hoqxon To‘ra Ibrat”, N. Abduazizovanning “O‘zbekiston matbuoti tarixi”, Alisher Isoqboevning “Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida tatar-boshqird ma’rifatparvarlarining faoliyati”, “T. Ernazarovning Turkistonda vaqtli matbuot”, S. Agzamxo‘jayev va Z. Ulug‘bekovanning “Al-isloh jurnali – Turkistondagi islohotchilik harakatini o‘rganish bo‘yicha tarixiy manba”, Begali Qosimovning “Milliy uyg‘onish”, M. I. Rustamovning “O‘zbek kitobi”, Рожинская Ф. Н. “Из истории развития книгоиздательского дела в Узбекистане” asari, A. Kattaboyevning “O‘zbek kitob nashri tarixiga doir” maqolasida, Л. С. Холназарова “История книжного дела и библиотековедения в Бухарском эмирате в XIX – начале XX в” tadqiqotlarida Turkistonda matbaaning paydo bo‘lishiga doir muhim ma’lumotlar berilgan.

Tadqiqot natijalari. Matbuot va matbaa o‘zining ommaviyligi tufayli insoniyat tarixida muhim rol o‘ynab kelmoqda. U g‘oya va fikrlarni xalq ommasi orasida tez tarqatishning, ommaviylashtirishning o‘tkir qurollaridan biridir. Axborotning qo‘lda yozishdan matbaa yo‘li bilan tarqatishga o‘tish insoniyat tarixida buyuk voqeadir. Ommaviy axborotning radio, televideniye va internet singari eng yangi vositalari paydo bo‘lishi bilan kitob nashr etish ishi o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Kitob fikr va g‘oyalarni o‘zida abadiy saqlab, avloddan avlodga yetkazadi. O‘zgarmas bir hujjat sifatida qayd qilib, qayta tiklab boradi.

Ma’lumki, 1870–1917-yillar milliy tariximizda Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davri sifatida o‘rin oldi. Ushbu davrda Turkistonda matbaaga asos solindi va bu Turkiston uchun yangilik edi. Ayni paytda nashriyot va noshirlikning Turkistonga kirib kelishi Turkiston xalqlari madaniyati uchun shubhasiz katta yutuq edi. Dastlabki yillarda Rossiya imperiyasi ma’murlari matbaadan o‘zining mustamlakachilik maqsadlarini amalga oshirish uchun foydalanish, o‘z g‘oyalarini yoyish, aholini ruslashtirish siyosatini olib borishda foydalanishga urindi. Turkiston

ziyolilari esa, aksincha, mahalliy xalqlarni jaholat va istibdoddan qutqarish, ularni uyg'otish, millatni ma'rifatli qilishda foydalanishga intildi.

Turkistonda birinchi bosmaxonaga 1868-yil harbiy okrug shtabi huzurida asos solindi. Lekin bu bosmaxona asosan blankalar, buyruq va devon uchun materiallar bosib chiqarishga moslashgan edi. Gazetalar yoki kitoblar bosib chiqarish uchun bu litografiyaning texnik imkoniyatlari ancha past bo'lgan. Shu sababdan yangi bosmaxona tashkil qilish zaruriyati paydo bo'ldi. Bu bosmaxona rus harflari bilan birga arab harflariga ham ega bo'lishi mo'ljallandi.

Turkistonning birinchi general-gubernatori Konstantin Petrovich fon Kaufman 1870-yil 20-avgustda turli blankalar, buyruq va devon materiallaridan tashqari gazetalar, jurnallar va kitoblar chop etishga qodir bo'lgan yangi bosmaxonani Turkiston general-gubernatori devoni qoshida ochish to'g'risida farmon chiqardi. Bu bosmaxona "Harbiy-halq boshqarmasi bosmaxonasi" deb nomlandi. Yangi bosmaxonani tashkil qilish uchun budjetdan general-gubernator 12 ming so'm pul ajratadi [1]. Bosmaxona uchun zarur bo'lgan poligraf uskunalari, harf turlari, kassa-reallar, mutaxassislar va boshqa kerakli anjomlarni qisqa vaqt ichida Rossiyaning markaziy shaharlaridan olib kelish, bosmaxonani yo'lga qo'yish ko'zda tutilgan edi. Buni amalga oshirishni gubernator janob Gomdingga topshiradi. U o'z navbatida shtab mayori Mixaylovni bosmaxona uchun zaruriy anjomlarni olib kelgani Sankt-Peterburg bilan Moskvaga yo'llaydi.

Bosmaxona uchun kerakli arab harflari Qozon shahridagi harf quyuv zavodiga buyurtma qilinadi. Arab alifbosini biladigan matbaachi-mutaxassislar ham shu shahardan yollanadi. Janob Gomdinning 1871-yil general-gubernatorga topshirgan yozma hisobotida "Harbiy halq boshqarmasi bosmaxonasi" uchun uskunalar bir tekisda olinayotganligi qayd qilingan[2]

Turkistonda xususiy bosmaxonalar XIX asrning 70-yillarida tashkil qilina boshlandi. Dastlabki xususiy bosmaxona 1876-yilning 20-iyulida Toshkent shahrida ochiladi. Bu bosmaxonaga Viktor Pastuxov asos soladi[3]. Ayrim tadqiqotlarda Turkistonda birinchi xususiy bosmaxonaga Bazilevskiy tomonidan asos solingani, boshqa kitoblarda esa Semyon laxtin tomonidan asos solingani yozilgan. Ammo, so'nggi tadqiqotlar bu ma'lumotlar xato ekanligini ko'rsatmoqda. Viktor Pastuxov asos solgan bosmaxona bitta bosma mashina, bitta mis dastgohga ega bo'lgan. Bir yildan keyin toshbosma dastgoh o'rnatilgan. Keyinroq Pastuxov bosmaxonani Laxtin uyiga, 1879-yilda toshkentlik savdogar Rahmatullaboyning hovlisiga ko'chiradi. 1880-yildan bosmaxona Semyon Laxtin qo'liga o'tadi[4]. Bu matbaaning rivojlanishida temir bilan savdo qiluvchi toshkentlik savdogar Esanboy Husaynboyog'lining hizmatlari juda katta. Ma'rifatni qadrllovchi bu toshkentlik savdogar o'zbek tilida kitoblar chop qilinishini qo'llab-quvvatladi. 1882-yilda Esanboy Husaynboyog'li Rossiyadan litografiya mashinalari sotib oladi. Ellik tuyaga ortib olib kelingan toshbosma uskunalar S. Laxtin bosmaxonasiga o'rnatiladi. Esanboy Husaynboyog'li ishtirokida o'zbek tilida kitoblar chiqarish boshlanadi. Bu bosmaxona

dastgohlaridan chiqqan o'zbek tilidagi ilk kitob So'fi Olloyorning "Sabot ul ojizin" kitobidir[5]. Arxiv hujjatlaridan ma'lum bo'lishicha 1889-yilda mahalliy buyurtmachilarga "Chor kitob", "Qofiya", "Layli va Majnun" asarlarini S. Laxtin matbaasida chop etishga ruxsat beriladi [6].

Shuni alohida takidlab o'tish lozimki, S. Laxtin matbaasi dastlabki o'zbek noshirlarini shakllanishiga sabab bo'lgan bosmaxonadir. Manbalardagi ma'lumotlardan kelib chiqib, Esanboy Husaynboyo'g'lini ilk o'zbek noshiri deb atash mumkin. Esanboy Husaynboyo'g'li noshirligida "Sabotul ojizn" va Alisher Navoiy devoni katta hajmda chop etilgan. 1893-yilda ushbu bosmaxona "Aka-uka kamenskiylar" savdo uyining qo'liga o'tadi.

Aka-uka Kamenskiylar egaligi davrida bosmaxonada toshbosma kitoblar juda kam chop etilgan. Bosmaxona asosan tipografik kitoblarni chop etishga e'tibor qaratgan. Shunday bo'lsada bu yerda Mulla Ahmadning "Aqoyidga sharh" kitobi, Sirojiddin maxdum ibn Domla Mirza Ahmad oxund noshirligida Alisher Navoiyning to'rt jildlik asarlari to'plami chop qilinadi[7]. Tipo-litografiya aka-uka Kamenskiylar kutganchalik daromad keltirmagani sababli 1899-yilda birinchi Gildiya savdogari Vasiliy Mefodiyevich Ilinga sotib yuborildi.

Vasiliy Ilin matbaasida ikkita igna formatli bosma mashina, "Amerikanka", nusxa oluvchi hamda toshbosma mashinalari bo'lgan. Barcha uskunalar qo'lda harakatga keltirilgan. 1897-yil 24-iyulda Prjevalsk shahrining ikkinchi gildiya darajasidagi savdogari Mefodiy Ilinov Ilin vafot etadi. Uning o'g'li Vasiliy Mefodiyevich Ilin 1898 yilning birinchi yanvaridan boshlab ikkinchi gildiya Toshkent savdogari unvoniga sazovor bo'ladi[8]. V. M. Ilin tipolitografiyasining ishchilari tarkibi baynalmilal xususiyatga ega bo'lgan. Bu matbaada rus millatiga mansub G. M. Kabilkovskiy, L. K. Dimitriyev, I. I. Kostelov, Andrey Bikov, yaxudiy millatiga mansub Baxarev, tatar matbaachisi Fozil Rahmatullinlar qatorida Yusuf Musamuhamedov, Nizomiddin Xo'jayev, Olim xo'jayev, Ziyovuddin Xo'jayev, Rizamuhammedov kabi mahalliy matbaachilari ham mehnat qilganlar [9]. Ma'lum muddat shoir G'ofur G'ulom ham shu bosmaxonada ishlagan. 1917-yil oktabr to'ntarishi arafasida matbaada ishchilar soni 50 nafardan oshgandi[10]. Bu matbaada ilk o'zbek gazetalari "Taraqqiy" va "Sadoyi Turkiston" keyinroq Abdulla Avloniy tomonidan nashr qilingan "Turon" gazetalari chop qilingan.

Aka-uka Porsevlar tipo-litografiyasi muvaffaqiyatli faoliyat ko'satgan shaxsiy bosmaxonalardan biri bo'lib, 1888-yilda tashkil etilgan. Ushbu tipo-litografiyaga savdogar Osip Alekseyevich Porsev Toshkentda harbiy hizmatni o'tayotgan akasi bilan birga asos solgan. Bosmaxonaga rus xarflari Peterburgdan olib kelingan bo'lsa, arab harflari esa Qozon shahridagi harf quyuv zavodiga buyurtma qilinadi[11]. Bosmaxonaga yuqori malakali ishchilar kerak edi. Bu masalani hal qilish uchun Rossiyaning markaziy shaharlaridan tajribali mutaxassislarni katta maosh evaziga matbaaga taklif qilinadi. Tipo-litografiya uchun zarur bo'lgan bosma uskunalar, bosma mashinalar, qirqish, chiziqllovchi va toshbosma anjomlarning bir qismi Peterburg shahridan

olib kelingan bo'lsa, bir qismi esa qo'shni matbaalardan sotib olinadi. Matbaaning bosma va litografiya bo'limida asosan rus mutaxassislari ishlagan bo'lsa, harf teruv bo'limida B. A. Krekovskiy, M. Dimitriyev, aka-uka Gololobovlar, S. N. Xarchev, P. D. Nemitinov, P. D. Feodiseyev, N. P. Vasilyev, M. G. Maslovlar qatorida tatar mutaxassislari aka-uka Rahmatullinlar, Shahingirey Bekqulov, G. Hamidullinovlar ish olib borishgan. O. A. Porsev tomonidan bosmaxonaga arab harflari bo'yicha muaxassislarni tayyorlash G. Hamidullinov zimmasiga yuklatilgan edi[12]. «O. A. Portsev o'z matbaasiga shogirdlarni faqat yetim qolgan o'g'il bolalardan (Orenburg va o'sha atrofdagi shaharlardan) tanlab olardi. Bolalarni bosmaxonaga olib kelib uy-joy va oziq-ovqat bilan ta'minlagach, ularni ish intizomiga bo'ysundirish uchun g'oyat qattiqqo'llik qilardi. 1910-yildan bosma mashinalar bug' bilan ishlaydigan poligraf uskunalariga aylanadi va matbaachilarning mehnati ancha yengillashadi.

1904-yili Toshkent shahrida yahudiy savdogari Abram Leybovich Krisner tomonidan tipolitografiyaga asos solinadi. A. L. Krisner 1892-yil Toshkent shahrida mo'jaz kitob sotish do'konini ochadi. Bu sohada ishi yurishmagach "Znaniye" firmasi bilan hamkorlik qiladi. Ammo, bu ishdan ham ko'ngli to'lmay bosma mashina sotib olib bosmaxona tashkil etadi. 1906-yilda A. L. Krisner haftada 3500 nusxada nashr qilingan "Tashkentskiy kuryer" gazetasiga asos soladi va uning noshiri va muharriri bo'lib oladi. "Tashkentskiy kuryer" gazetasi gubernator buyrug'i bilan yopilgach uning o'rniga "Turkestanskiy kuryer" gazetasi chop etiladi[13]. A. L. Krisner gazeta ishini yo'lga qo'ygach, bosmaxona uskunalarini to'ldirishga harakat qilib, 1910-yil aprel oyida markaz poligraf firmasiga bosma poligraf mashinaga buyurtma beradi [14]. Bosmaxonaning texnik imkoniyatlari oshganidan so'ng 1910-yildan boshlab "O'rta Osiyo" jurnali nashr qilina boshlandi[15]. Matbaada uchta bosma mashina, nusxa oluvchi uskuna va gazeta-jurnal nashr qilish uchun yetarli miqdorda harf xo'jaligi bo'lgan. Bu bosmaxona dastgohlaridan Normuhammad Namongoniyning "Tuhfatul obidin va anisul oshiqin" g'azallar to'plami va Fuzuliyning devoni nashr qilinadi[16].

1914-yili Qo'qon shahri Boybo'ta mahallasida I. Vayner tomonidan tipolitografiya tashkil etiladi. I. Vayner yahudiy millatiga mansub savdogar bo'lib, mo'may daromad olishni ko'zlab matbaaga asos solgan edi. Bu bosmaxonada Ortiqboy va Nazirjon kabi mahalliy ishchilar harf teruvchi bo'lib ishlashgan[17]. A. L. Vayner bu ishchilardan asosan arabiy harflardagi kitoblarni chop qilish ishlarida foydalangan. 1915-yildan bu bosmaxona bug' bilan ishlaydigan tipolitografiyaga aylanadi. Ushbu matbaada Ibrohim Davron tomonidan tuzilgan "Madaniy jumboqlar" va "Ash'ori Nisvon" kitoblari, Mahmud Hakim Yayfaniyning geodeziya bo'yicha "G'aniyat al-masohat", Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Saodat" romani va boshqa ko'plab kitoblar nashr qilingan[18]. "Kengash" va "Hurriyat" gazetalari ham ushbu tipolitogarfiyada chop qilingan.

Shu davrda Turkistonda “G‘ulomiya”, “Matbaai Is’hoqiya”, “Demurov”, “Poltoranov”, “Abdusattorboyev”, “Shimakov”, “Bazilevskiy”, “Geyer”, “Kasnelson”, “Edelman”, “Petrov”, “Groman”, “Fridman”, “Minakov”, “Abduraupov”, “Osiyo”, “Maktab”, “Ravnaq”, “Vilner”, “Ilhomjon Inog‘omjonov”, yahudiylarning “Yakov Samandar” va boshqa ko‘plab tipolitografiyalari faoliyat olib borgan. Maqolamizning birinchi qismida shaxsiy matbaalarning ayrimlari haqida ma‘lumot berdik xolos. Turkistonda faoliyat ko‘rsatgan xususiy matbaalar haqidagi tadqiqotlarimizning keyingi qismlarida yuqorida sanab o‘tilgan matbaalar faoliyati haqida batafsil ma‘lumot berishga harakat qilamiz.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash lozimki, Turkistonda xususiy matbaachilikning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishida turli millatga mansub savdogarlar, ziyolilar va boshqa ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari muhim o‘rin tutgan bo‘lsa-da, mazkur masala hanuzgacha alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. Mazkur mavzuni chuqur tadqiq qilish xususiy matbaachilikning vujudga kelish bosqichlarini, ularning moddiy-texnik imkoniyatlarini aniqlash, Turkiston matbaachilik tarixining kam yoritilgan sahifalarini ochib berish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston milliy arxivi. I. 1-fond, 20-ro‘yxat, 2879-ish, 16–20-varaqlar.
2. O‘zbekiston milliy arxivi. I. 1-fond, 20-ro‘yxat, 2879-ish, 32–37-varaqlar.
3. Османова М.Н. Старопечатная книга в Средней Азии в конце XIX – начале XX в. // Вестник института ИАЭ, 2013, №2.
4. Boboxonov A. O‘zbek matbaasi tarixidan. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1979. – B. 144.
5. Axunjanov E. Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik: nazariyasi va tarixi. - Toshkent: Tafakkur-Bo‘stoni, 2011. - B. 387.
6. O‘zbekiston milliy arxivi. I. 36-fond, 1-ro‘yxat, 3615-ish, 10–11-varaqlar.
7. Rustamov M. O‘zbek kitobi. - Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 1968. -B.32
8. O‘zbekiston milliy arxivi. I. 87-fond, 1-ro‘yxat, 23615-ish, 1-8-varaqlar
9. O‘zbekiston milliy arxivi. I. 87-fond, 1-ro‘yxat, 23615-ish, 1-8-varaqlar
10. Добросмыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Исторический очерк. Ташкент, 1912. – С. 297.
11. Boboxonov A. O‘zbek matbaasi tarixidan. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1979. – B. 154.
12. Boboxonov A. O‘zbek matbaasi tarixidan. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1979. – B. 155-156.

13. Авшарова М. П. Русская периодическая печать в Туркестане (1870—1917). - Ташкент: Госиздат, 1960. - С. 64-66.
14. O'zbekiston milliy arxivi. I. 1-fond, 13-ro'yxat, 868-ish, 1-15-varaqlar
15. Авшарова М. П. Русская периодическая печать в Туркестане (1870—1917). - Ташкент: Госиздат, 1960. - С. 67.
16. Boboxonov A. O'zbek matbaasi tarixidan. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1979. – B. 180.
17. Husayn Shams. Matbaachilik va uning tarixi. – Toshkent: Uzgosizdat, 1930. – B. 31.
18. Axunjanov E. Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik: nazariyasi va tarixi. - Toshkent: Tafakkur-Bo'stoni, 2011. - B. 41."